

Dars jarayonida yangi ko'rgazmali va tarqatmali materiallardan foydalanish

Vazira Muhiddinovna Ulug'murodova
Samarqand viloyati, Nurobod tumani, 41-maktab

Annotatsiya: Mazkur maqolada darslarda ko'rgazmali va tarqatmali materiallardan foydalanish texnologiyasi xususida fikr-mulohazalar bildirilgan. Xususan, milliy qadriyatlarimiz bilan uyg'unlashib yangi metodlar yaratgan holda zamonaviy darslarni tashkil etish masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: illyustrativ metod, Ko'rgazmali va tarqatmali materiallar, pedagog mahorati, milliy qadriyatlar, milliy metodlar, dars samaradorligi.

Use of new demonstration and handout materials in the course of the lesson

Vazira Muhiddinovna Ulugmuradova
Samarkand region, Nurabad district, School №41

Abstract: This article provides feedback on the technology of using visual and handout materials in classes. In particular, issues of organizing modern classes, creating new methods in harmony with our national values, will be considered.

Keywords: illustrative method, Demonstration and distribution materials, pedagogic skill, national values, national methods, lesson efficiency.

Asta sekin umumta'lim maktablarining mazmunini tubdan o'zgartirildi, ya'ni ta'limni maktabning maqsad va vazifalariga mos keladigan yangi, ancha takomillashgan izohli illyustrativ metodi vujudga keltirildi. Izohli-illyustrativ ta'limda o'rganilayotgan ob'yekt mohiyati izohlanadi, hayotiy faktlar bilan bog'lanadi hamda o'qtuvchining ana shu o'rganilayotgan ob'ektga nisbatan ko'rsatadigan misol va xilma-xil ko'rgazmali qurollari orqali tasdiqlovchi xulosasi bilan yakunlanadi.

Darslarda ko'rgazmali va tarqatmali materiallardan foydalanishdan asosiy maqsad ta'lim oluvchilarning mavzuni o'rganishlarida ularning diqqatini to'plash, darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, o'zlariga bo'lgan ishonchni uyg'otish hamda ko'rgazmalilik va tarqatmalilik asosida ularning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishdan iborat. Shu o'rinda, muhtaram Prezidentimizning «Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda,

xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq», degan fikrlari so'zimizning isboti bo'ladi.

Urug'lar yordamida turli xil narsalar yasash. Bu metod orqali o'quvchilarni tabiatni asrab-avaylash, har qanday narsadan unumli foydalanib biron narsa yashash va o'quvchilarni darsga bo'lgan e'tiborini kuchaytirishdan iboratdir. Bu metod orqali o'quvchilarni ijodkorligini rivojlantirish yo'q narsadan bor qilishdir. Bu metodning maqsadi ajdodlarimizdan qolgan tarixiy an'analarimizni o'quvchilarga o'rgatish va bu urf-odatlarini rivojlantirish usullari hisoblanadi.



Milliylik metodi. O'quvchilar milliy o'z-o'zini anglashi uchun o'z mamlakati, ajdodlari tarixini o'rganishi kerak. Chunki tarixni o'rganish hozir va kelajakni anglash, strategik tafakkur yuritish, yuz berayotgan voqealarga xolisona baho berish ko'nikmalarini shakllantirish, o'zining ma'lum bir millatga daxldor ekanligini anglashga yordam beradi.



Har bir o'quvchi yoshlikdan o'z millati, xalqining an'analari, til boyligi, og'zaki hamda yozma adabiyoti, san'ati va musiqasi, xullas chuqur ma'naviy merosini o'rganib, bilib, o'zida mujassamlashtirib boradi. Aks holda u ma'lum bir xalqqa mansub ekanligini ko'rsata olmaydi.

Shuning uchun ham xalq ta'limi tizimining boshlang'ich davrlaridanoq o'quvchilar ongida milliy axloqiy sifatlarni, orzu-istaklari, iymon-e'tiqodlari, dunyoqarashlarini milliy asoslardagina shakllantira bormas ekan, ko'zlangan maksadga erishib bulmaydi. Buning uchun, shubxasiz, kelajagimiz bo'lmish farzandlarimizning, barkamol, axloqli bo'lib tarbiyalanishlariga erishishda faqat milliy ta'lim-tarbiyaga asoslangan ta'lim muassasalariga ega bo'lishimiz darkor.

Taklif sifatida quyidagi fikrlarni keltirmoqchiman:

- ta'lim muassasalarida ushbu metodlarni qo'llash orqali o'quvchi-yoshlar yoshiga mos ravishda milliy-axloqiy sifatlarni singdirish orqali o'zligini anglashga yordam beradi;

- ta'lim muassasalarida chet el metodlarini emas balki o'zimizni milliy metodlarimiz qo'llash;

- ma'naviy-axloqiy tarbiyani bugungi kun talablari darajasiga ko'tarish, yoshlar dunyoqarashiga ta'sir qiluvchi turli madaniy, siyosiy, ijtimoiy tadbirlarni tashkil etish;

- yosh davrlarga mos tarbiya vositalari va milliy metodlar, psixologik ta'sir o'tkazuvchi usullarni tanlay bilish;

Men ham o'z faoliyatim davomida darslarga ijodiy yondashib, ko'rgazmalarni qo'l mehnatidan foydalanib yarataman. Bu gal milliy metod yaratishda poliz ekinlarining urug'laridan foydalandim. Tarvuz, Qovun, oshqovoq va shumga o'xshash ekinlar urug'i yordamida turli didaktik ko'rgazmalar tayyorladim. Ulardan dars jarayonida foydalanish o'quvchilarda qiziqish uyg'otdi. O'quvchilarning darsga qiziqishlarini oshirib olsakgina, dars samaradorligini ham yaxshi natija beradi.

Xulosa qilib aytganda, Ko'rgazmali va tarqatmali materiallarni dars jarayonida boshqa barcha milliy metodlar bilan birga qo'llab, dars samaradorligini oshirish imkoniyati mavjud. Ushbu imkoniyatdan qanday foydalanish o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qurbonniyozov R. "O'quvchilar bilim va ko'nikma va malakalarini tekshirish shakllari va metodlari" T. O'qituvchi 2018 y.

2. Qurbonniyozov R. "Ta'limi metodikasi". Toshkent, 2015 y.

3. Tojiboyeva D. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. - T.: «Fan va texnologiya», 2007. -541-b.